

## ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

*Quldosheva Xolisa*

Tayyorladi: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
“Moliyaviy tahlil” kafedrasи o’qituvchisi.

**Annotatsiya:** Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoiti hamda yangi O’zbekistonni rivojlantirish uchun belgilangan 5 ta strategiya iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqaruvchi korxonalar sonining ortib borishi, mahsulot assortimentining ko’payib borishi natijasida ishlab chiqarish jarayoninining boshqaruvi mukammallahib bormoqda. Bu esa boshqaruvin tizimidagi strukturaning zamon talablariga mos ravishda o’zgarishini talab qilmoqda, ya’ni boshqaruvin hisobi doirasida ilmiy tadqiqot o’tkazish talabini dolzarb muammo sifatida qo’ymoqda. Ushbu maqolamizda ham aynan yuqorida keltirib o’tilgan muammolar yechimi keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Ishlab chiqarish, ishlab chiqarish xarajatlari, korxonalar, boshqaruvin tizimi, struktura.

Ijtimoiy-iqtisodiyot strukturasining rivojlanishi bilan korxonalarda boshqaruvin hisobini tashkil qilish va uni xo’jalik faoliyatida qo’llash muhim rol o’ynaydi. Buning uchun avvalo, korxonalar strukturasini zamon talablariga moslashtirib olish lozim. Korxonalar strukturasini o’zgartirish kichik biznes vakillarida oson va tez kechadi. Bizga ma’lumki oxirgi 5 yildan beri mamlakatimizda kichik biznes rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, boshqaruvin hisobi ko’p asrlik rivojlanish tarixiga ega. Tadqiqotchi olimlar tadqiqotlari va izlanishlari natijasidan ma’lum bo’lganki, boshqaruvin hisobining asosiy maqsadi mahsulot tannarxini kalkulatsiya qilish, xarajatlarni minimallashtirish va shuning natijasida yuqori foydaga erishishdir.

Korxonani boshqarish – bu uning o’z oldiga qo’yanan maqsadiga erishishida faoliyatini tartibga solish va koordinatsiyalash (bir- biriga bog’lash jarayon)dir. Har qanday boshqaruvin ma’lum bir yo’naltirilgan faoliyat bo’yicha axborotni jamlash, qayta ishslash va ularni saralab, kerakli qarorlarni qabul qilishga alohida e’tibor beradi. Axborotlarning qanchalik aniq va to’g’ri ekanligi korxonaning ertasini belgilab beradi. Boshqaruvin hisobi esa aynan shu vazifani bajaradi, ya’ni menejerga kerakli axborotlarni tez va ishonchli taqdim etadi. Ishlab chiqarishda ayniqsa axborotlarning aniqligi va operativligi asosiy rol o’ynaydi. Shu o’rinda qayd qilish kerakki, boshqaruvin hisobining mohiyatini belgilashda deyarlik barcha olimlar uning asosida aynan shu axborot tahlili yetishini ta’kidlaydi. Boshqaruvin hisobi tarkibida xo’jalik yurituvchi sub’ektning barcha

bo'limlari kesimida asosiy faoliyat natijalari, ana shu natijadagi har birining ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, tasniflanadi, tahlil qilinadi va tegishli qarorlar qabul qilinadi. Shu sababli boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqaruv bo'g'inida mavjud bo'lgan bir qancha mavjud muammolarni hal qiladi desak xato bo'lmaydi.

Hozirgi kundagi korxonalar faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, ularning ko'pchiligidagi buxgalteriya hisobining ancha orqadalgiga guvoh bo'lamiz. Bunga asosan mahsulot tannarxini aniqlashdagi qiyinchiliklar, mavjud muammolar, axborotlarning o'z vaqtida buxgalteriyaga yetkazilib bermasligi oqibatidadir. Jumladan, ishlab chiqarish schyotida sotilgan mahsulot tannarxining yig'ilib qolganligini, xarajatlarning noto'g'ri taqsimotini olib borilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatni boshqarish murakkab jarayon hisoblanadi. Boshqaruv talablariga javob beruvchi hisob tizimi ham murakkab bo'lib, ko'pgina tadbirlar va jarayonlardan tashkil topadi. Boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqib, boshqaruv hisob tizimi ham murakkab bo'lib, ko'pgina tadbirlar va jarayonlardan tashkil topadi. Boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqib, boshqaruv hisobi tizimi elementlari tarkibiy o'zgarishi mumkin.

Boshqaruv hisobining maqsadi – ichki foydalanuvchilarga korxonaning serqirrali faoliyatini tashkil etish hamda rivojlantirishni ta'minlash uchun zarur bo'lган chora tadbirlarlarni ishlab chiqish, qo'llash, tahlil etish jarayonida kerak bo'lган barcha ma'lumotlarni aniq optimal muddatda qulay usullar yordamida yetkazib berish hisoblanadi. Boshqaruv hisobi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamda globallashuv sharoitida korxonalarini inqirozga uchramasdan barqaror ravishda rivojlantirish yo'lida to'g'ri va samarali qarorlarni o'z vaqtida ishlab chiqish uchun zarur bo'lган to'g'ri ma'lumotlar bilan tezkor holda ta'minlashi zarur.

Hozirgi jahon iqtisodiyoti aynan tannarxni kamaytirishga urg'u bergen bo'lib, marjinal tizimni olg'a surmoqda. Bu ya'ni o'zgaruvchan xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan rejalar jamlanmasidir. O'zgaruvcha xarajatlar biz bilamizki mahsulot hajmiga bog'liq bo'lган xarajatlardir. Ular hajm oshishiga to'g'ri proporsional bo'lib, mahsulot hajmi oshishi bilan oshib boradi. Agar biz mahsulot hajmining oshirib ammo o'zgaruvcha xarajatlar quymatini kamaytirishga erishsak foyda oshishiga erishamiz. Bunda bizga boshqaruv hisobining ma'lumotlari zarur bo'ladi.

Boshqaruv hisobining ma'lumotlari va hisoboti boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va asoslash uchun ishlatilishi lozim. Agar Ma'lumot qarorni shakllantirishda xizmat qiladigan bo'lsa, demak u foydali bo'lган hisoblanadi. Boshqaruv hisobini foydalanuvchilari ushbu ma'lumotlar asosida qanday yo'l tutishi kerakligini tushunib olishi lozim.

Boshqaruv hisobining funksiyalari va ularning qo'llanish doirasini o'rganish doirasida shu qarorga keldikki, agar quyidagi talablarga boshqaruv hisobi beradigan hisobotlar javob bersa samarali natija bergen bo'ladi:

-o'zida har bir yo'naliш bo'yicha alternative variantarga ega bo'lishi hamda shu bilan bir qatorda ularning afzallikkari keltirilgan bo'lishi, har birining tanlov natijalari isbotining qayd etilgan bo'lishi;

-har bir variantning ham matematik talqini ham natijaviy samaradorligklarining ko'rsatib o'tilishi;

-har bir ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan yoki yuzaga keilishi mumkin bo'lgan ko'zda tutilgan va ko'zda tutilmagan ma'lumotlarning keltirib o'tilishi, shu bilan bir qatorda maqsadga erishida kerak bo'ladigan ma'lumotlar bazasining olish mumkin bo'lgan taktikalarni ko'rsatib o'tish.

Boshqaruv hisobini yuritish bozor iqtisodiyotining shakllanishi nilan kirib kelganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu boradagi tajribamiz hali yetarli emas. Shu sababli, ushbu yo'naliшda ilmiy amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda mavjud xorij tajribasini mamlakatimiz sharoitiga mos jihatlarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, har bir korxonaning o'ziga yarasha boshqaruv hisobini tashkil qilishda ichki omillari mavjud:

- ishlab chiqarish sohasining turli xilligi. Masalan, bir turdag'i yoki bir necha turdag'i mahsulot assortimentini ishlab chiqarivchi korxonalarda xarajatlardan klassifikatsiyasi bir biridan farq qiladi. Bunda xarajatlarni boshqarish murakkablashib boradi, ya'ni oddiydan murakkabga qarab yo'naladi. Bir nechta mahsulot turini ishlab chiqaruvchi korxonalarda xarajatlardan javobgarlik markazlari bir nechta bo'lib ularing har biri alohida alohida boshqaruv hisobotini topshiradi. Bu esa o'z navbatida ichki nazorat tizimining murakkab mehnat taqsimotining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;

-ma'lum bir belgilangan standartlar doirasida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardagi normativlarning mavjudligi. Misol uchun bir birlik mahsulotga ketadigan xomashyo va materiallarning normative darjasidan chetga chiqmasligi, ya'ni aniq belgilab qo'yilganligi, bunday hollarda korxona belgilangan normative doirasida mahsulot tannarxini aniqlaydi va shu standart doirasida xarajatlarni boshqaradi;

- korxonalardagi xarajatlarning taqsimotini turlichaligi. Har bir korxona o'z faoliyati doirasidagi xarajatlardan yoyilmasiga ega. Bir korxonada mavjud bo'lgan xarajatlardan boshqa bir korxonada bo'lmasligi yoki umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. Buni har bir korxona o'zining hisob siyosatida belgilab qo'yadi va shgunga asosan mahsulot tannarxini shakllantiradi va xarajatlardan taqsimotini boshqaradi. Shuningdek har qaysi korxona o'z faoliyat doirasidan kelib chiqib korxona hisob tamoyillari, uslablari va usullarini belgilab oladi;

-korxonalardagi ichki strukturaning turlichaligi. Bu boshqaruv hisobini tashkil etishdagi eng asosiy e'tibor qaratiladigan komponentlardan biridir.

Shu o'rinda qay etish lozimki, korxonalarda belgilangan maqsadga olib boruvchi faoliyat tizimini tashkil qilishda, xususan boshqaruv hisobi elementlaridan boshlab, to boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonigacha qator principal xato va kamchiliklarga yo'lq qo'yiladi. Shu xulosalardan kelib chiqib, eng avvalo boshqaruv hisobini tashkil qilish mohiyatini to'g'ri anglash va talqin qiliosh lozim.

Fikrimizcha boshqaruv hisobi tizimi o'z ichiga quyidagi asosiy elementlarni olishi lozim:

- har bir xarajat taqsimoti, foyda kutilishi, investitsiya yo'naltirilishi bo'yicha javobgarlik markazlari;
- nazorat ko'rsatkichlari hamda ularning tahliliy holati;
- boshqaruv hisobining birlamchi hamda yig'ma ma'lumot hujjatlari;
- har bir ma'lumot bo'yicha yakuniy xulosalar va ularning guruhlangan jamlama hisoboti;
- boshqaruv hisobot shaklining hisob siyosatida belgilangan shaklidagi tuzilgan hisoboti;
- foydalananuvchilar uchun axborotning yig'ilishi, ishlab chiqilish, qayta ishlanishi hamda hisoboti tartiblari.

Boshqaruv hisobining har bir bo'linma bo'yicha javobgarlik markazlarning tashkil etilishi menejerlar ishini ancha osonlashtirish, malumotlarning aniq va o'z vaqtidaligini kafolatlaydi, hamda salbiy og'ishishlarning kelib chiqish sabablarini tezkor aniqlashga yordam berib ularning yuzaga kelishini oldini oladi. Javobgarlik markazlari deganda, biz bir qancha boshqaruv funksiyalarini bajarish uchun vakolat va mas'uliyatlarni o'z bo'yniga olgan va ular uchun bajarilishi kerak bo'lган korxonaning javobgar shaxslari, deb tushunamiz. Masalan, ishlab shiqarish xarajatlari bo'yicha javobgarlik markazi qilib, xarajatlarning har bir tasimot nuqtasi belgilanishi mumkin. Agar boshqaruv hisobi tizimi korxonaning alohida tarkibiy bo'limi bilan chegaralanadigan bo'lsa, javobgarlik markazlari faoliyat fuksional hududlarda olib borilgan ishlar natijalariga qarab ajratilishi mumkin. Masalan ishlab shiqarish korxonalarida bosh injenerning xizmatida maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda hududlarning quyidagi markazlarida olib boriladi: texnik ta'minlash, ichlab shiqarish xavfsizligi va ekologiya; texnik ko'rik xizmati va asbob uskunalarni ta'mirlash; texnik rivojlanish va ilmiy-amaliy tadqiqotlar; ishlab shiqarishni aniq belgilangan resurslar bilan ta'minlash (elektroenergiya, gaz suv va boshqalar.)

Maqoladagi, boshqaruv hisobini tashkil qilish bo'yicha maslalarni tadqiq qilish natijalari bo'yicha olingan ilmiy xulosalar hamda berilayotgan taklif-tavsiyalardan foydalinish ixtiyoriy olingan xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarlariga, xo'jaligining mulk shakli va faoliyat turidan qat'iy nazar, ularda:

-boshqaruv hisobini tashkil qilish, uni yuritish va natijalarini hisobga olishga uslubiy jihatdan to'g'ri yondashish imkonini beradi. Buning natijasida boshqaruv hisobi siyosatining to'g'ri shakllanishiga erishiladi, bu esa pirovard natijada ana shu ma'lumotlarga asoslanadigan to'g'ri va samarali boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga mustahkam poydevor yaratadi;

- rahbarlarga ichki imkoniyatlarni hisoblash, tashqi muhit ta'sirini e'tiborga olish va buning uchun ularni tahlil qilish, hisobga olish va nazorat qilish imkoniyatlarini ochadi;

-boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy ma'lumotlarning asoslanishini ta'minlash, istiqbol ko'rsatkichlarini to'g'ri shakllantirish, hosil bo'lgan bir necha variantlardan eng optimallarini tanlash imkon kengayadi va pirovard natijada bevosita iqtisodiy samaraning o'sishi ta'minlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Y.Raximov, N.N.Mavlanov, N.N.Kalandarova "Iqtisodiy tahlil" O'quv qo'llanma. T.; "IQTISOD-MOLIYA", 2022.
2. Z.Sagdillayeva, I.Choriyev, S.Hamidova, U.Yuldasheva "Iqtisodiy tahlil" Darslik. "IQTISODIYOT" 2020.